Hozirgi kunda global raqamli transformatsiya bank tizimiga shiddat bilan kirib kelmoqda. Tijorat banklari raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshirish, mijozlar bazasini rivojlantirish, ularga qulayliklar yaratish, xarajatlarni kamaytirish va xavf-xatarlarni avtomatlashtirilgan tahlil orqali qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Shuningdek, raqamli ekotizim yaratish bank xizmatlarini yanada ommalashtirish, fintex subyektlari bilan integratsiyani ta'minlash, mijozlar ehtiyojlariga tez va samarali javob berish hamda ularga qulaylik yaratishga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi – tijorat banklarida raqamlashtirish va ekotizimni rivojlantirish bo'yicha amaliy va ilmiy asoslangan zamonaviy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Ekotizim tushunchasi bank, fintex, regulyator, telekom, mijoz va texnologik platformalarni yagona raqamli muhitga birlashtiradi, bu esa bank platformalarini rivojlantirib, ularning ommabopligini oshiradi hamda mijozlarga qulaylik va yengillik yaratadi. Ushbu tizim



orqali mijozlar bir platforma orqali bir nechta xizmatlardan foydalanib, vaqtlarini unumli sarflash imkoniga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliya bozorida tijorat banklarining faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish orqali banklar mijozlar bilan munosabatlarni avtomatlashtirish, masofadan xizmatlar taqdim etish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Shu bilan birga, raqamli ekotizimni rivojlantirish orqali banklar fintex, davlat tuzilmalari, texnologik provayderlar va mijozlar bilan yaqin hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu, albatta, mijozlar uchun ham qulaylik yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi hamda aholining hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining raqamlashtirish jarayonlari nafaqat milliy moliya bozorining barqarorligini ta'minlaydi, balki mamlakatning global moliya tizimidagi nufuzini ham oshiradi.

Maqolaning maqsadi – tijorat banklarida raqamlashtirish va bank ekotizimini rivojlantirish jarayonlarini o'rganish, xalqaro tajribalarni tahlil qilish va O'zbekiston amaliyotida ushbu yo'nalishdagi islohotlar samaradorligini baholashdan iborat. Mazkur maqolada tijorat banklarida raqamlashtirish jarayoni va raqamli ekotizim yaratishning amaliy ahamiyati, samaradorlikka ta'siri va istiqbollari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

R. Shanti va hammualliflar [2023] o'z izlanishlarida ta'kidlaydilar, raqamli transformatsiya banklarni yangi biznes modeliga olib kiradi. Bu esa xizmatlar sifatini, mijozlar bilan muloqot samaradorligini va raqobatbardoshlik darajasini oshiradi. Ularning ta'kidlashicha, raqamli ekotizimda banklar faqat moliyaviy vositachi emas, balki innovatsion platforma sifatida ham faoliyat yuritmoqda [1].

Syaoyi Lyan va Chuchu Syu [2025] tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa raqamli transformatsiya tijorat banklarining biznes samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bayon etiladi. Ular 42 ta Xitoy banki ma'lumotlariga tayanib, bankning o'lchami va raqamli yetuklik darajasiga qarab natijalar farq qilishini ko'rsatadilar [2].

V. Stefanelli, F. Manta va P. Toma [2022] "Digital Financial Services and Open Banking Innovation: Are Banks Becoming Invisible?" nomli ishlarida shunday xulosaga kelishganki, ochiq bank (open banking) va fintex integratsiyasi natijasida yangi bank ekotizimi shakllanmoqda. Bu jarayonda an'anaviy bank ko'rinishi yo'qolib, u platformalashgan, mijozga yaqin va ko'p funksiyali tuzilmaga aylanmoqda [3].

Lihua Zuo ning qayd etilishicha, raqamlashtirish bank faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib, uning ta'siri asosan uchta kanal orqali namoyon bo'ladi: ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish, tranzaksiya xarajatlarni qisqartirish va ichki boshqaruvni takomillashtirish. Uning fikricha, raqamli texnologiyalarga investitsiya kiritish banklarning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlaydi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ko'rib chiqilgan muammolarni o'rganishda tizimli tahlil, ilmiy aks ettirish, tahlil va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamlashtirishning asosiy ustunliklari va bugungi kunda raqamlashtirish jarayoni.

Mijozlar uchun qulayliklar:

- Onlayn va mobil banking orqali kunu-tun xizmat ko'rsatish imkoniyatlari.
- Elektron to'lov tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari.
- Bank xizmatlarining tezkor va shaffof bo'lishi.
- Mijozlar uchun vaqt tejaliishi va amaliyot bajarilishidagi tezlik.

Banklar uchun samaradorlik:

- Avtomatlashtirilgan jarayonlar orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish.
- Xavflarni tahlil qilish va nazorat qilishning yaxshilanishi (KYC/AML).
- Fraud holatlarini aniqlash va oldini olish imkoniyatlari.

Mijozlar bazasining kengayishi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sektorida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, tijorat banklarida raqamlashtirish quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda.

Onlayn va mobil banking xizmatlari — bunda mijozlar bank filiallariga bormasdan smartfon yoki kompyuter orqali to'lovlarni amalga oshirish, hisobvaraqlarni nazorat qilish, kredit va depozit mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularga vaqt va mablag' tejaliishiga sezilarli yordam beradi.



Avtomatlashtirilgan to'lov tizimlari — QR-kod orqali to'lovlar, NFC texnologiyasi asosidagi kontaktless to'lovlar, onlayn savdo maydonlarida integratsiya qilingan moliyaviy xizmatlar mijozlar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi. Bunda mijozlar simsiz uzatish texnologiyasi yordamida terminallardan foydalanadilar, smartfonlar orqali to'lovlarni amalga oshiradilar va naqdsiz to'lovlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mijozlar ma'lumotlarini raqamli tahlil qilish — Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali mijozlarning ehtiyojlari o'rganilib, ularga individual moliyaviy xizmatlar taklif etiladi hamda ularning to'lov qobiliyatlari aniqlanadi.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash — raqamli bank xizmatlari kengayishi bilan moliyaviy ma'lumotlarni himoya qilish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu maqsadda tijorat banklari blokcheyn texnologiyalari, biometrik identifikatsiya va ko'p bosqichli autentifikatsiya tizimlarini joriy etmoqda. Bu turli xavf-xatarlarning oldini olish va kiberxavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli infratuzilmani takomillashtirish — "oblochnyy texnologiyalar" (cloud computing), blokcheyn, sun'iy intellekt kabi innovatsion yechimlar bank faoliyatida samaradorlikni oshirmoqda. Ya'ni qo'shimcha serverlar tashkil qilinmasdan, oblochnyy texnologiyalar yordamida infratuzilma provayder serverlarida joylashtiriladi va unga internet orqali ulanib foydalaniladi. Bu juda qulay bo'lib, xavfsizlik jihatidan ma'lumotlar zaxiralanadi va himoyalanaadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish jarayonlari tijorat banklari uchun quyidagi asosiy ustunliklarni ta'minlaydi:

- Xizmat ko'rsatish tezkorligi va sifatni oshirish.
- Mijozlar bazasini kengaytirish.
- Operatsion xarajatlarni qisqartirish.
- Yangi biznes modellarni joriy etish.
- Moliya bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

Ekotizim — bu bank atrofidagi raqamli sheriklar, jumladan:

- Fintex kompaniyalari,
- To'lov provayderlari,
- Elektron hukumat xizmatlari,
- API orqali integratsiyalangan texnologik platformalar,
- Mijozlar va tashqi sheriklar.

Raqamli ekotizimlar yaratilishi natijasida:

- Xizmatlar tezkor va moslashuvchan bo'ladi.
- Yangiliklar tez joriy etiladi.
- Texnologik hamkorlik kuchayadi.
- Bitta platformada bir nechta mahsulot va xizmatlar jamlanadi.
- Mijozlar turli ma'lumot va xizmatlarni bir platforma orqali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bank ekotizimi — bu nafaqat an'anaviy moliyaviy xizmatlar, balki FinTex kompaniyalari, elektron savdo maydonlari, telekommunikatsiya operatorlari va turli nomoliyaviy xizmatlar integratsiyasini o'z ichiga olgan yagona raqamli muhitdir. Zamonaviy bankchilikda ekotizim yaratish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda. Fintex kompaniyalari bilan hamkorlik va ular tomonidan ishlab chiqilayotgan innovatsion yechimlar tijorat banklari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Masalan, mobil to'lov tizimlari orqali simsiz terminallar (NFC) va blokcheyn asosidagi tranzaksiyalar bank xizmatlarini elektron tijorat maydonlariga ulash imkonini bermoqda. Onlayn savdo platformalarida tovar sotib olish jarayonida bankning kredit yoki to'lov xizmatlari, konsalting xizmatlari avtomatik tarzda ishga tushadi. API orqali integratsiya qilingan xizmatlar mijozlar uchun qulay va arzon moliyaviy yechimlarni taqdim etmoqda.

Elektron savdo maydonlari bilan integratsiya natijasida bank ekotizimlarida bank xizmatlari faqat moliyaviy tranzaksiyalar bilan cheklanmayapti, balki elektron tijorat maydonlarining faol qismiga aylanmoqda. "Super ilova"lar orqali kompleks xizmatlar ko'payib, xalqaro tajribada WeChat (Xitoy) yoki GoJek (Indoneziya) platformalari kabi modellar ommalashib bormoqda.

Bu turdagi mobil dasturlarda bank xizmatlari, to'lov tizimlari, transport chiptalari, sug'urta xizmatlari va hatto turizm xizmatlari ham birlashtirilmoqda. Nomoliyaviy xizmatlarni qamrab olish orqali zamonaviy bank ekotizimlari ta'lim, sog'liqni saqlash, logistika, konsalting va telekommunikatsiya sohalarini ham o'z ichiga olmoqda. Bu mijozlarning turli ehtiyojlarini qondirish orqali banklarga uzoq muddatli barqaror foyda keltiradi.

Mijozlar uchun qulayliklar yaratish bankning asosiy maqsadidir. Bank mijozlarga nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi, balki ularning turmush tarzini yengillashtirish hamda turli sohalaridagi ehtiyojlarini raqamli yo'l orqali ta'minlab va qondirib boradi. Shu orqali mijoz bilan bank o'rtasida uzoq muddatli ishonchli munosabatlar shakllanadi.



Amaliy misollar (O'zbekiston tajribasidan). So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida moliya sektorida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, tijorat banklarini raqamlashtirish va raqamli ekotizimni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi to'g'risidagi Farmonida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan bank tizimini raqamlashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shunga muvofiq, 2025-yilga qadar barcha bank xizmatlarining 70 foizini raqamli platformalarga o'tkazish rejalashtirilgan va bu bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mobil va onlayn banking xizmatlari. Hozirgi kunda O'zbekistondagi barcha tijorat banklari onlayn banking xizmatlarini yo'lga qo'ygan. Bularga "Anor Bank", "Aloqa Bank", "Milliy Bank", "Kapital Bank" kabi yirik moliya muassasalari misol bo'la oladi. Ular o'z mobil ilovalarini takomillashtirib, mijozlarga kredit, depozit va turli to'lov xizmatlarini smartfonlar orqali taqdim etmoqdalar.

QR-to'lovlar va raqamli to'lov xizmatlari. O'zbekistonda QR-kod orqali to'lov tizimlari jadal rivojlanmoqda. Hozirda "Click", "Payme", "Uzum", "Paynet" kabi fintex kompaniyalari banklar bilan integratsiya qilingan holda aholi va biznes subyektlariga qulay hisob-kitob xizmatlarini taqdim etmoqda.

Fintex bilan hamkorlik. Tijorat banklari fintex kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirib bormoqda. Ular bugungi kunda mikrokredit, onlayn ijara, sug'urta, turizm va elektron tijorat platformalarini bank tizimi bilan birlashtirib, yangi xizmatlar ekotizimini yaratmoqda.

Bank ekotizimining shakllanishi. Ayrim yirik banklar o'z raqamli ekotizimlarini barpo eta boshladi. Masalan, Kapital Bank tomonidan Uzum Market onlayn savdo platformasi ishga tushirilib, bankning to'lov va kredit xizmatlari elektron tijorat bilan integratsiya qilingan. Shuningdek, Anor Bank va Ipak Yo'li Bank fintex yechimlar orqali nomoliyaviy xizmatlar segmentiga kirib bormoqda. Xizmat ko'rsatishning 80 foizi raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan. Banklar fintexlar bilan API orqali hamkorlik qilmoqda va bu yo'nalish bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Ba'zi banklarda biometrik identifikatsiya, onlayn kreditlash, QR-kod orqali to'lovlar va boshqa modullar amalda qo'llanib, o'z samaradorligini ko'rsatmoqda.

Dunyo bank sektorida raqamli transformatsiya. Bugungi kunda dunyo bank sektori raqamli transformatsiya jarayonlarida turli modellardan foydalanmoqda. Ayrim mamlakatlar innovatsion fintex yechimlarini joriy etishda yetakchi bo'lsa, boshqalari bank ekotizimini barqaror rivojlantirish orqali katta natijalarga erishmoqda.

Yevropa tajribasi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari asosan PSD2 (Payment Services Directive 2) direktivasiga muvofiq yo'lga qo'yilgan. Bu orqali ochiq bankchilik (open banking) tizimi shakllantirilgan va mijozlar ma'lumotlari fintex kompaniyalari bilan integratsiya qilingan holda xizmatlar ko'rsatilmoqda. Bugungi kunda Germaniya, Fransiya va Niderlandiya banklari raqamli ekotizim orqali yangi biznes modellarini rivojlantirmoqda.

AQSH tajribasi. AQSH bank sektori raqamli innovatsiyalar va fintex startaplar bilan hamkorlikka katta e'tibor qaratmoqda. PayPal, Apple Pay, Google Pay kabi platformalar bank xizmatlarini raqobatchi emas, balki hamkor sifatida boyitmoqda. Shu bilan birga, AQSH banklari kiberxavfsizlik va blokcheyn texnologiyalaridan keng foydalanmoqda.

Janubiy Koreya tajribasi. Bu mamlakatda raqamli bank xizmatlari eng rivojlangan tizimlardan biri hisoblanadi. Neo-banklar — ya'ni faqat onlayn faoliyat yurituvchi banklar — keng ommalashgan. Kakao Bank va K-Bank mobil ilovalari orqali millionlab mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda. Koreya tajribasining o'ziga xosligi shundaki, bank ekotizimlari telekommunikatsiya, transport va elektron tijorat sohalari bilan uzviy bog'langan holda faoliyat olib boradi.

Xitoy tajribasi. Xitoy moliya bozorida raqamli xizmatlar ulushi juda yuqori. Alipay va WeChat Pay kabi platformalar milliardlab mijozlar uchun asosiy to'lov vositasiga aylangan. Banklar elektron tijorat maydonlari (Alibaba, JD.com) bilan chuqur integratsiya qilinib, moliyaviy xizmatlar bilan birga ko'plab nomoliyaviy xizmatlarni ham qamrab olmoqda.

Rossiya tajribasi. Raqamli bank xizmatlari bu mamlakatda ham jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, Sberbank tomonidan yaratilgan raqamli ekotizim eng yirik namunalardan biri hisoblanadi. U nafaqat bank xizmatlarini, balki sug'urta, telekommunikatsiya, onlayn savdo, turizm va hatto sog'liqni saqlash sohasini ham qamrab olgan. Shuningdek, Tinkoff Bank to'liq onlayn bank sifatida mijozlar bilan raqamli munosabatlarni shakllantirgan. Rossiya tajribasi shu jihatdan qiziqarli bo'lib, u Yevropaning ochiq bankchilik modeli va Xitoyning "super ilova" modelini uyg'unlashtirishga intilmoqda.

Tavsiyalar sifatida raqamlashtirish yo'nalishida barcha xizmatlar uchun raqamli platformalar yaratish va ularni rivojlantirish muhim. Ekotizimni rivojlantirib ommalashtirish, fintex tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash va yangi mahsulotlar ishlab chiqish zarur. Inson kapitali, ya'ni bank xodimlari uchun raqamli ko'nikmalar bo'yicha o'quv qo'llanmalari tashkil etilib, bu sohada bilim va ko'nikmalar berilishi lozim.

Istiqbolli yo'nalishlarga to'xtalsak, O'zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishi kutilmoqda:



- Raqamli identifikatsiya (e-ID) tizimini joriy qilish.
- Blokcheyn asosidagi to'lov va hisob-kitob tizimlarini yo'lga qo'yish.
- Super ilova shaklida kompleks bank ekotizimlarini yaratish.
- Sun'iy intellekt asosida shaxsiy moliyaviy maslahat xizmatlarini joriy etish.

Raqamli transformatsiya jarayonlari tijorat banklari uchun nafaqat texnologik, balki iqtisodiy jihatdan ham katta imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamlashtirish natijasida bank faoliyatida samaradorlik oshadi, xarajatlar qisqaradi va yangi rivojlanish bosqichlariga zamin yaratiladi.

Raqamlashtirish va ekotizimning iqtisodiy samaradorliklari bank sektorida operatsion xarajatlarni sezilarli kamaytirish, filiallar tarmog'iga bo'lgan ehtiyojni qisqartirish hamda ko'plab jarayonlarni onlayn formatga o'tkazish orqali namoyon bo'ladi. Bu, o'z navbatida, banklarning xarajatlar tuzilmasini optimallashtirib, daromadlar hajmining oshishiga xizmat qiladi. Raqamli xizmatlar mijozlar bazasini kengaytirib, hududiy cheklovlarisiz mamlakatning turli mintaqalari va xorijdagi foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish imkonini yaratmoqda. Shuningdek, fintex bilan integratsiya natijasida mikrofinans, elektron sug'urta va mobil to'lov kabi zamonaviy moliyaviy mahsulotlar joriy etilib, banklar uchun yangi yo'nalishlar ochilmoqda.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini ham beradi. Natijada, banklar an'anaviy kredit-depozit operatsiyalaridan tashqari, raqamli to'lovlar, elektron savdo, konsalting kabi xizmatlar orqali qo'shimcha daromad oladi, bu esa xizmatlar jozibadorligini oshiradi va raqobat ustunliklarini shakllantiradi. Mijozlar uchun raqamli xizmatlarning afzalliklari ham yaqqol seziladi. Xizmat ko'rsatish jarayoni tezlashadi, shaxsiylashtirilgan moliyaviy yechimlar taklif etiladi, elektron to'lovlar orqali vaqt va mablag' tejiladi, shuningdek, moliyaviy xavfsizlik va shaffoflik darajasi oshadi.

Raqamli bank xizmatlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri keng ko'lamli bo'lib, naqd pul aylanmasini qisqartirish, iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini oshirish, soliq bazasini kengaytirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash kabi natijalarda aks etadi. Raqamlashtirish iqtisodiyotda biznes jarayonlarini tezlashtirib, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga ham yordam beradi. Bu esa iqtisodiy faollikning ortishiga, innovatsion faoliyatning kuchayishiga va iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Kelgusida raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi yanada istiqbolli yo'nalishlar bilan boyib borishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi shaxsiy moliyaviy maslahat xizmatlari, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan xalqaro to'lov tizimlari, IoT orqali aqlli to'lov mexanizmlarini joriy etish hamda ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi green banking yo'nalishlari kelajakda moliyaviy ekotizimning asosiy drayverlariga aylanishi ehtimol qilinadi. Bu jarayonlar raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga, moliyaviy xizmatlar sifatining oshishiga va jamiyatning moliyaviy inklyuzivligini kengayishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, raqamlashtirish va bank ekotizimini rivojlantirish tijorat banklari uchun strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bank xizmatlarining samaradorligi va sifati oshadi, mijozlar uchun qulayliklar yaratiladi, iqtisodiy o'sishga kuchli turtki beriladi va mamlakat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Raqamlashtirishning asosiy ustunliklari — bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, xarajatlarni qisqartirish, mijozlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish, yangi moliyaviy va nomoliyaviy xizmatlarni joriy etish hamda milliy iqtisodiyotda shaffoflik va raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat.

Shu bilan birga, mamlakatimizda raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish — internet qamrovini kengaytirish va sifatini oshirish, serverlar hamda koll-sentrlar imkoniyatlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

2. Kiberxavfsizlik choralari mustahkamlash — bank va mijoz ma'lumotlarini himoya qilish uchun blokcheyn, biometrik identifikatsiya va ko'p bosqichli autentifikatsiya tizimlarini joriy etish xavf-xatarlarning oldini oladi.

3. Fintex hamkorligini qo'llab-quvvatlash — tijorat banklari va fintex kompaniyalari o'rtasida strategik hamkorlikni kuchaytirish, huquqiy bazani takomillashtirish va rivojlantirish zarur.

4. Mijozlar raqamli savodxonligini oshirish — aholi va biznes subyektlari uchun raqamli xizmatlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ta'lim va targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

5. Super ilova va raqamli ekotizimlar yaratish — bank xizmatlarini savdo, sug'urta, logistika, turizm, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi sohalar bilan integratsiya qilish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli bank xizmatlari va ekotizimni rivojlantirish nafaqat tijorat banklari samaradorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi va mamlakat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shanti R. et al. Role of digital transformation on digital business model banks //Sustainability. – 2023. – T. 15. – №. 23. – P. 16293.
2. Tang Y. Investigating the Impact of Digital Transformation on Equity Financing: Empirical Evidence from Chinese A-share Listed Enterprises //Journal of Humanities, Arts and Social Science. – 2024. – T. 8. – №. 7.
3. Stefanelli V., Manta F. Digital financial services and open banking innovation: are banks becoming 'invisible'? //Global Business Review. – 2023. – C. 09721509231151491.
4. Zuo L., Strauss J., Zuo L. The digitalization transformation of commercial banks and its impact on sustainable efficiency improvements through investment in science and technology //Sustainability. – 2021. – T. 13. – №. 19. – P. 11028.
5. Ўзбекистон Призидентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030” дастури тўғрисидаги Фармони. – Тошкент, 2020.
6. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Ўзбекистон банк секторида рақамлаштириш жараёнлари” – Ҳисобот, Тошкент, 2022.
7. Маматкулов Ш.Р. Тижорат банкларида рақамли технологияларни жорий қилиш истиқболлари. – Тошкент: “Иқтисодиёт” журнали, 2021.
8. Абдурахмонов Қ., Эргашев Б. Рақамли иқтисодиёт: назария ва амалиёт. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2020.
9. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси”. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021.
10. Сбербанк России. Цифровая трансформация банковского сектора. – Москва, 2021.
11. Тинькофф Банк. Годовой отчет о развитии цифровых сервисов. – Москва, 2022.
12. Digital Banking in Europe: EBA Report. – European Banking Authority, 2021.
13. PSD2 Directive (EU) 2015/2366 of the European Parliament. – Brussels, 2015.
14. Federal Reserve System. “The Future of Digital Banking in the USA”. – Washington DC, 2020.
15. PayPal Holdings Inc. Annual Report 2021. – San Jose, USA, 2021.
16. Lee, J., & Kim, H. “Digital Banking Transformation in South Korea”. – Journal of Financial Innovation, Vol. 8(2), 2020.
17. Kakao Bank. Annual Report 2021. – Seoul, 2021.
18. Ant Financial (Alipay). “Building a Digital Financial Ecosystem”. – Beijing, 2020.
19. Tencent Holdings Ltd. WeChat Pay Development Report. – Shenzhen, 2021.
20. PwC. “Global FinTech Report: The Road to Digital Banking Ecosystems”. – London, 2020.
21. Deloitte. “The Future of Banking: Digital Transformation and Ecosystems”. – New York, 2019.
22. World Bank. “Digital Financial Services and Financial Inclusion”. – Washington DC, 2021.
23. OECD. “Digitalization and the Future of Finance”. – Paris, 2020.
24. IMF. “Fintech and Financial Stability Implications”. – Washington DC, 2021.
25. <https://review.uz/oz/post/iqtisodiy-tadqiqotlar-va-islohotlar-markazibanklar-faollik-indeksini-ishlab-chiqdi>
26. <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/588197/>
27. www.nbu.uz
28. www.lex.uz
29. <https://business.anorbank.uz/uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
